



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILIY
KUTUBXONASINING
AXBOROT –BIBLIOGRAFIK FAOLIYATI

Jabborbergenova Gulhayo

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat insituti Nukus filiali

Kutubxona-axborot faoliyati 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbari:

O'zbekiston davlat san'at madaniyat insituti Nukus filiali

Kutubxona faoliyati kafedrası dotsenti

Sharipova Dilbarxon

Annotatsiya: Mazkur maqola Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-bibliografik faoliyati bibliografik xizmat ko'rsatish tizimi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek kutubxonaning elektron kataloglar bibliografik ko'rsatkichlar yaratish faoliyati va foydalanuvchilarga axborot xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari tahlil qilingan. Kutubxonaning ilmiy-ma'rifiy faoliyatidagi o'rni ham ochib berilgan.

Kalit so'zlari: Axborot bibliografik faoliyati, milliy kutubxona, elektron katalog, bibliografik xizmat, axborot resurslari, kutubxonachilik, bibliografiya.

Abstract: This article discusses the information and bibliographic activities of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, the system of bibliographic services, and the use of modern information technologies. The library's electronic catalogs, activities for creating bibliographic indicators, and the processes of providing information services to users are also analyzed. The role of the library in scientific and educational activities is also revealed.

Keywords: information and bibliographic activities, national library, electronic catalog, bibliographic service, information resources, librarianship, bibliography, electronic library.



Hozirgi kunda axborot-kutubxona muassasalari jamiyatining ilmiy ma'naviy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa milliy kutubxonalar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish ilmiy axborotlarni saqlash va foydalanuvchilarga yetkazishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatning asosiy ilmiy va bibliografik markaz sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Milliy kutubxona nafaqat bosma adabiyotlarni saqlaydi, balki zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan elektron xizmatlarni ham rivojlantirib bormoqda. Shu sababli kutubxonaning axborot-bibliografik faoliyati bugungi kunda katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-bibliografik faoliyat kutubxona ishining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi foydalanuvchilarni kerakli axborot bilan tezkor va sifatli ta'minlashdan iborat. Milliy kutubxonada bibliografik xizmat ko'rsatish jarayoni an'anaviy va elektron shakllarda amalga oshiriladi.

Kutubxona foydalanuvchilarga kataloglar, kartotekalar, bibliografik ko'rsatkichlar, ma'lumotnomalar va elektron bazalar orqali xizmat ko'rsatadi. Bibliografik mutaxassislar kitobxonlarga kerakli manbalarni topishda amaliy yordam beradi hamda ilmiy izlanishlar uchun zarur axborot tavsiya qiladi. Bugungi kunda Milliy kutubxona faoliyatida elektron kataloglar alohida o'rin egallaydi. Elektron katalog foydalanuvchilarga internet orqali kerakli adabiyotlarni qidirish imkonini beradi. Bu tizim axborot izlash jarayonini tezlashtiradi va kitobxonlarga qulayliklar yaratadi. Kutubxonalarda turli mavzular bo'yicha¹ bibliografik ma'lumot bazalari shakllatirilgan. Ushbu bazalarda kitoblar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa hujjatlar haqida ma'lumotlar jamlangan. Elektron resurslarning mavjudligi foydalanuvchilarga masofadan turin axborot olish imkoniyati ham yaratilmoqda. Milliy kutubxona bibliografik ko'rsatkichlar tuzish bo'yicha ham katta tajribaga ega. Bibliografik ko'rsatkichlar ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kutubxona tomonidan turli fan

¹ Xudaybergenova, M. (2024). HÁZIRGI KÜNDEGI MÁLIMLEME KITAPXANA ISI TARAWÍNDAGÍ AKTUAL MÁSELELER. ZAMONAVIY FANDA AKADEMIK TADQIQOTLAR (T. 3, Vypusk 2, s. 151–153). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10890987>



sohalariga oid tavsiyaviy mavzuli va ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar tayyorlanadi.

Milliy kutubxona bibliografik ko'rsatkichlar tuzish bo'yicha ham katta tajribaga ega. Bibliografik ko'rsatkichlar ilmiy tadqiqotlar olib borishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kutubxona tomonidan turli fan sohalariga oid tavsiyaviy, mavzuli va ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalar tayyorlanadi. Bibliografik ko'rsatkichlar foydalanuvchilarga kerakli adabiyotlarni tizimli ravishda topishga yordam beradi. Ayniqsa milliy merosga oid bibliografik qo'llanmalar ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy davrda kutubxonalarda raqamli texnologiyalar asosida axborot xizmatlarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Milliy kutubxona ham foydalanuvchilarga elektron kutubxona virtual ma'lumotnoma va onlayn xizmatlar orqali xizmat ko'rsatmoqda. Kutubxonada internet tarmog'i orqali xalqaro ma'lumot bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu esa foydalanuvchilarning ilmiy axborotga bo'lgan ehtiyojini yanada samarali qondirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham hozirgi kunda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamalakatning eng yirik va ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri hisoblanadi. Kutubxonada turli ilmiy konferensiyalar, kitob taqdimotlari va manaviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Bu tadbirlar esa yosh kutubxonlarning madaniyatini oshirish va ilm-fanga qiziqishini kuchaytirishda yordam beradi. Kutubxona fondida saqlanayotgan nodir qo'lyozmalar, tarixiy asarlar va milliy nashrlar xalqning boy madaniy merosini saqlashda yordam beradi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-bibliografik faoliyati mamlakat axborot-kutubxona tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kutubxona foydalanuvchilarga zamonaviy axborot xizmatlarini ko'rsatish bibliografik resuslar yaratish va ilmiy-ma'rifiy faoliyatini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shamiz. Zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilayotgan ishlar kutubxonaning axborot markazi sifatida mavqeini yanada mustahkamlab yuqoriga ko'rsatadi.



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-bibliografik faoliyati mamlakat imiy va madaniy salohiyatini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda asosan foydalanuvchilarga tezkor va sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatis, miliy adabiyot va ilmiy merosni yanada rivojlantirish, raqamli va elektron tizimni rivojlantirishdan iborat. Axborot-bibliografik faoliyatini yanada samarali tashkil etish malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish milliy kutubxonaning ilmiy va madaniy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda esa Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatning eng yirik axborot-kutubxona markazi hisoblanadi. Milliy kutubxona faoliyati zamonaviy kutubxona standartlariga moslashtirilgan bo'lib u nafaqat an'anaviy kutubxona xizmatlar balki axborot-bibliografik faoliyatini innovatsion yo'nalishlarini ham qamrab oladi. Axborot texnologiyalar rivojlanayotgan hozirgi davrda kutubxonalar nafaqat kitob saqlovchi maskan balki yirik axborot markazlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Ayniqsa Milliy kutubxonalar mamalakatning ilmiy ma'naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Kutubxona o'z faoliyati davomida millionlab bosma va elektron manbalarni jamlab foydalanuvchilarga yetkazib bermoqda. Shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya va texnologiyalarini kutubxona tizimiga joriy qilish orqali axborot xizmatlarini yanada takomillashtirmoqda. Kutubxonaning axborot-bibliografik faoliyati ilmiy tadqiqotchilar, talabalar, o'qituvchilar va keng kitobxonlar ommasining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda yordam beradi. Alisher Navoiy nomidagi² O'zbekiston Milliy kutubxonasi uzoq tarixga ega bo'lgan yirik ilmiy-ma'rifiy maskandir. Kutubxona XIX asr oxirida tashkil etilgan bo'lib keyinchalik O'zbekistonning Markaziy davlat kutubxonasiga aylangan. Mustaqillik yillarida kutubxona faoliyati tubdan modernizatsiya qilindi va unga miliy kutubxona maqomi berildi.

² Sharipova Dilbarxan Atajanovna. (2026). Badiiy adabiyot va kutubxona muhitining yoshlarning axloqiy tarbiyasiga ta'siri. *Xalqaro pedagogika jurnali*, 6 (02), 119–121. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume06Issue02-29>



Bugungi kunda esa kutubxona zamonaviy binoda faoliyat yuritib, foydalanuvchilarga barcha qulayliklarni yaratib bermoqda. Kutubxonada elektron o'quv zallar, internet markazlari, multimedia xonalari va raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan. Kutubxonaning xizmat ko'rsatish tizimi an'anaviy va elektron shaklda olib boriladi. An'anaviy bibliografik xizmatlar kataloglar, kartotekalar va bosma bosma bibliografik qo'llanmalar asosida tashkil qilinadi. Elektron bibliografik xizmatlarda esa foydalanuvchilar internet orqali kerakli manbalarni qidirish imkoniga ega bo'ladi. Elektron katalog tizimi kitobxonlarning muallif mavzu yoki kalit so'zlar orqali adabiyotlarni tez topishga yordam beradi. Kutubxona bibliograflari foydalanuvchilarga individual maslahatlar beradi, ilmiy ishlar uchun kerakli adabiyotlar ro'yxatini tuzishda yordam ko'rsatmoqda. Bu tizimlar ayniqsa magistrlar, doktoranturalar va ilmiy tadqiqotchilar uchun juda muhimdir.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida yaratilgan elektron kataloglar foydalanuvchilarga masofadan turib axborot izlash imkoni beradi. Milliy kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy kutubxonalar bilan hamkorlikda ishlaydi. Ushbu hamkorlik asosida esa tajriba almashish, elektron resurlardan foydalanish va bibliografik ma'lumotlar bazalarini boyitish ishlarini amalga oshirmoqdalar. Kutubxona konferensiyalar va ilmiy loyihalar ham faol ishtirok etib kelmoqda. Bu esa milliy kutubxonachilik tizimning rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari kutubxonada turli mavzular bo'yicha bibliografik ko'rsatkichlar yaratilmoqda. Bibliografik ko'rsatkichlar ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Kutubxonada turli turdagi bibliografik qo'llanmalar tayyorlanadi. Bularga tavsiyaviy bibliografik ko'rsatkichlar, mavzuli bibliografik qo'llanmalar, ilmiy-yordamchi bibliografik ko'rsatkichlar, shaxs bibliografiyalari, o'lkashunoslik bibliografiyalari kiradi. Markuz bibliografik qo'llanmalar foydalanuvchilarga kerakli adabiyotlarni topishda yordam beradi.

Axborot-bibliografik faoliyatni samarali tashkil etish malakali kadrlarni tayyorlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish milliy kutubxonaning ilmiy



va madaniy salohiyatini oshirishda yanada yordam beradi. Hozirgi kunda kutubxonada foydalanuvchilarga tezkor va sifatli axborot xizmatini ko'rsatish, milliy adabiyot va ilmiy merosni tizimlashtirish, raqamli va elektron tizimlarni rivojlantirishni yo'lga qo'ydi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi O'zbekistondagi eng yirik va qadimiy kutubxonalardan biri hisoblanadi. Ushbu kutubxona mamlakatning ilmiy-ma'rifiy markazi bo'lib kitobxonlarga keng turdagi adabiyotlar va axborot resurslarini taqdim etadi. Kutubxona 1870-yilda Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida tashkil etilgan. Dastlab u kichik hajmdagi fondga ega bo'lsada vaqt o'tishi bilan uning fondi boyib borgan. Kutubxona fondida millionlab gazetalar, kitoblar, jurnallar, qo'lyozmalar va ilmiy adabiyotlar saqlanadi. Bu yerda o'zbek va jahon adabiyotlari saqlanadi.

Ayniqsa tarix, adabiyot, falsafa, san'at va ilm-fan sohalariga oid manbalar katta ahamiyatga ega. Bu kutubxonada ilmiy tadqiqotchilar uchun talabalar va kitobxonlar uchun qulay sharoitlar yaratilib berilmoqda. Kutubxonada o'quv zallari, elektron katalog tizimi, internet markazlari va multimedia xizmatlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. bundan tashqari turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar kitob taqdimotlari va ilmiy uchrashuvlar ham o'tkazilib kelinmoqda. Kutubxonada asosan yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishda muhim o'rin tutadi. U kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ilm-fanni targ'ib qilish va milliy merosni asrab-avaylashga xizmat qilib kelmoqda. Shu sababli Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatning eng muhim ma'naviy maskanlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida kutubxona kutubxona faoliyati yanada rivojlanib zamonaviy axborot texnologiyalar bilan rivojlangan. Kutubxona zamonaviy arxitektura asosida qurilgan bo'lib, keng va yorug' o'quv zallari bilan kitobxonlarga qulay sharoit yaratadi.

Kutubxonada nodir va qadimiy qo'lyozmalarni saqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerda o'zbek xalqi tarixi, madaniyati va adabiyotiga oid noyob manbalar mavjud. Ayrim qo'lyozmalar maxsus harorat va namlikda saqlanadi, chunki ular milliy madaniy merosning qimmatli qismi hisoblanadi. Kutubxona xalqaro hamkorlik faoliyatini ham olib boradi. U turli xorijiy



kutubxonalar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilib, tajriba almashadi. Natijada kitob fondi yangi xorijiy adabiyotlar bilan boyib boradi va foydalanuvchilar uchun zamonaviy ilmiy manbalardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, kutubxonada imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham maxsus xizmatlar yo'lga qo'yilgan. Brayl yozuvidagi kitoblar, audio adabiyotlar va maxsus texnik vositalar orqali barcha kutubxonlarga teng imkoniyat yaratishga harakat qilinadi. Bugungi kunda kutubxona nafaqat kitob o'qish maskani, balki yoshlarning bilim va tafakkurini rivojlantiruvchi madaniy markaz sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Bu yerda yosh ijodkorlar uchrashuvlari, adabiy kechalar, tanlovlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam tashkil etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'RQ - 280. 2011 yil, 13 aprel. // Xalq so'zi gazetasi, 2011 yil, 14 aprel.
2. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2-Darslik /Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150-b.
3. Xudaybergenova, M. (2024). HÁZIRGI KÚNDEGI MÁLIMLEME KITAPXANA ISI TARAWÍNDAGÍ AKTUAL MÁSELELER. ZAMONAVIY FANDA AKADEMIK TADQIQOTLAR (T. 3, Vypusk 2, s. 151–153). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10890987>
4. Yesimov.T.B. O'zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74-b, <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/22334>
5. Sharipova Dilbarxan Atajanovna. (2026). Badiiy adabiyot va kutubxona muhitining yoshlarning axloqiy tarbiyasiga ta'siri. *Xalqaro pedagogika jurnali* , 6 (02), 119–121. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume06Issue02-29>
6. Aytimova. D. A. (2023). Effective Use of Pedagogical Technologies in Teaching Library Studies. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(5), 40–43. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1422>